


Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Sport kurashlarida tayyorgarlik turlarini tas'nifi bo'yicha saralash texnologiyasini ishlab chiqish  	Tadqiqotning shakli Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - sport kurashlari bo'yicha turli vazn toifasidagi kurashchilarni o'quv-mashg'ulot yuklamalaridan so'ng tiklanish holatlarini monitoring qilish uchun funksional, jismoniy tayyorgarligi bo'yicha musobaqa faoliyatini samaradorligini aniqlash dasturini ishlab chiqiladi; - milliy terma jamoa tarkibidagi sportchilarni texnik-taktik harakatlarini monitoring qilish asosida Sport kurashlari bo'yicha turli vazn toifasidagi kurashchilarni o'quv-mashg'ulot yuklamalarida H10 Polar uskunasiidan foydalanib olingan ko'rsatkichlar asosida sportchilarni tiklanish holatlarini monitoring qilishning yangi modelini ishlab chiqish orqali samaradorligi aniqlanadi; - yuqori natijalarga erishishni ta'minlovchi o'quv mashg'ulot rejalarini ishlab chiqish, bundan tashqari sportchilarni mashg'ulot jarayonidagi ko'rsatkichlarining holatini uzluksiz nazorat qilish orqali rivojlanish monitoringini amalga oshirish uchun, dasturiy ta'minot bilan birga qobiliyat sifatini aniqlovchi maxsus innovatsion dastur yaratiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Sport vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovlardan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sport vazirligining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.